

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 27 (1626), 2026-yil 10-fevral, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

QISHLOQ XO‘JALIGIDA
ILM-FANNI YANGI BOSQICHGA
OLIB CHIQISH ZARURLIGI
QAYD ETILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-fevral kuni qishloq xo‘jaligida yangi yerlarni o‘zlashtirish va sohada ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari natijasida so‘nggi besh yilda 826,5 ming gektar yer qishloq xo‘jaligi foydalanishiga kiritildi. Shuning 409 ming gektari sug‘oriladigan yerlar hisobiga, 418 ming gektari esa lalmi va yaylov yerlarda yer osti suvlaridan foydalanish hamda kam suv talab qiladigan ekinlarni joylashtirish orqali o‘zlashtirildi.

2030-yilgacha yana 938 ming gektar yaylovlarni o‘zlashtirish va holatini yaxshilash rejalarini taqdimot qilindi.

Xususan, 2026-2027-yillarda 620 ming gektar yaylov tiklanib, shuning 300 ming gektarida yaylov o‘simliklari ekiladi, 130 ming gektarida quduqlar o‘rnatiladi. Natijada 960 ming bosh mayda shoxli mol boqish, go‘sht va jun ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Yangi yerlarni o‘zlashtirishda har bir hudud bo‘yicha aniq investor va loyiha asosida ish tashkil qilish zarurligi qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligida ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish uchun amaldagi institutsional infratuzilmani o‘zgartirish vaqti kelgani qayd etildi. Shu maqsadda sohadagi 22 ta ilmiy markaz, 260 ta laboratoriya hamda 2,5 mingdan ortiq olim va ilmiy xodimlarni yagona tuzilma — Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasiga birlashtirilishi belgilangan.

Taqdimotda biotexnologiya va molekulyar biologiya, gen injeneriyasi va gibrid urug‘chiligi, “aqli” qishloq xo‘jaligi, kosmik va dron texnologiyalari, yerlar degradatsiyasi hamda sog‘lom tuproq, organik qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi, veterinariya, raqamli qishloq xo‘jaligini akademiya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilash taklif etildi.

Akademiya faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.

Qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Hozirda Toshkent davlat agrar universitetida 13,6 ming talaba tahsil olayotgani, biroq o‘quv jarayonining amaliyot bilan yetarlicha bog‘lanmagani sababli bitiruvchilarning atigi 55 foizi o‘z sohasida ishlayotgani ko‘rsatib o‘tili.

Shu munosabat bilan ta‘lim, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarishni uzviy bog‘laydigan tizim yaratish, mehnat bozori talabiga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash vazifalari belgilandi.

Jumladan, kelgusida universitet talabalarining 6,8 ming nafari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar, korxonalar va agroklastarlarda, 2,6 mingdan ziyodi

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi 22 ta ilmiy-tadqiqot institutida amaliyot o‘taydi.

Shuningdek, fermer hamda uning xodimlari farzandlarining test sinovlarida ballari qabul parametrlariga yetmaganda, miqdori kamaytirilgan to‘lov-kontrakt asosida universitetga qabul qilish, yettita ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish davomiyligini 4-yildan 3-yilga qisqartirish taklif etildi. Talabalarni traktorchi-mashinist guvohnomasi va agrodronlardan foydalanishga o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Taqdimotda Agrosanoatni rivojlantirish agentligining faoliyati ko‘rib chiqildi.

O‘tgan yilda 44 ming gektar samarasiz yerlarda intensiv va sanoatlashgan bog‘ hamda tokzorlar tashkil qilib, 37 ming ish o‘rni yaratildi.

Bu yerlarda tashkil etilgan bog‘ va tokzorlar 2027-yildan hosil berishni boshlab, yiliga 660 million dollar meva-sabzavot eksport qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Masalan, So‘xda 500 gektarda olma, malina va o‘rik, Termez tumanida 164 gektarda o‘rik va shaftoli, Ohangaron tumanida 309 gektar, Bulung‘urda 550 gektar hamda Quvada 60 gektar yerdan uzoqning “Avatar” navi, Pop tumanidagi 504 gektarda esa shaftoli va olxo‘ri plantatsiyalari tashkil etildi.

Mazkur ishlarni davom ettirib, 2026-yilda 25,5 ming gektar mevali bog‘lar va 5 ming gektar uzumzorlar tashkil qilib, 48 ming doimiy hamda mavsumiy ish o‘rinlarini yaratish zarurligi qayd etildi.

Har yili mamlakatimizga 60 million dollarlik ko‘chatlar import qilinmoqda. Ushbu ko‘chatlarni Yevropa standartlari asosida o‘zimizda tayyorlash uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi ko‘rsatib o‘tili.

Bu borada agentlik tomonidan 200 dan ortiq meva turlarining virusdan xoli, yuqori hosiloli onalik navlari kolleksiyasi yaratilgan. Ushbu meva turlarini ko‘paytirish va barcha hududlarga yetkazib berish maqsadida Bektemir tumanida 50 gektar, Yuqori Chirchiq tumanida esa 75 gektarlik “in-vitro” laboratoriyalari va onalik ko‘chatxonalaridan iborat majmualar tashkil etilmoqda. Ushbu majmualarni yil yakunigacha ishga tushirib, yillik 27 million dona ko‘chat tayyorlash vazifasi qo‘yildi.

Prezidentimiz taqdimotda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

Xalqaro hamkorlik

O‘ZBEKISTON – POKISTON:
KELISHUVLARDAN SEZILARLI NATIJALARGA

Davlat rahbarlari darajasidagi kelishuvning haqiqiy qiymati protokol sahifalarida emas, xalq hayotidagi o‘zgarishlarda ko‘rinadi. Tovar tezroq yetib kelsa, tashish arzonlashsa, bozorlar ochilsa, ish o‘rinlari ko‘paysa, ta‘lim va malaka almashinuvi kengaysa, demak, diplomatiya iqtisodiy natija beryapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif o‘rtasidagi muloqotning asosiy mazmuni ham aynan shu: ikki mamlakatni “Markaziy Osiyo — Janubiy Osiyo” iqtisodiy ko‘prigi bilan bog‘lab, hamkorlikni aniq maqsadlar, ijro mexanizmlari va loyihalar orqali mustahkamlash. Yaqin davrdagi uchrashuvlar va amaliy kelishuvlar O‘zbekistonning Janubiy Osiyo bilan iqtisodiy bog‘liqligini chuqurlashtirish, Pokistonning esa Markaziy Osiyo bozorida ishirokini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlarni ochdi.

Davomi 3-betda



Zamonaviy kompyuter texnologiyalari, AT dasturlari va sun‘iy intellekt... XXI asr raqamli texnologiyalar davri sifatida o‘zining aql bovar qilmas salohiyatini ko‘rsatishda davom etmoqda. Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichi, ya‘ni sun‘iy intellekt davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Sun‘iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotdan tortib, ta‘lim, tibbiyot, sud-huquq, qishloq xo‘jaligi va boshqaruv tizimigacha chuqur kirib bormoqda.

AHOLI UCHUN YANADA QULAY VA
SAMARALI “SERVIS BO‘LINMALAR”I

Turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritmlar va dasturiy tizimlardan iborat sun‘iy intellekt inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma‘lumotlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek,

u murakkab tahlillar va katta ma‘lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni qamrab olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega “aqli” texnologiyadir.

Davomi 2-betda

NURONIYLAR HAR BIR
KO‘CHAGA BIRIKTIRILADI

Yangi O‘zbekistonda nuroniylarni ijtimoiy himoya qilish, ularning salomatligini asrash, turmush sharoitini yaxshilash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani inson qadriini ulug‘lash yo‘lidagi ezuq islohotlarning amaliy ifodasi sifatida barchamizda chuqur shukronalik hissini uyg‘otmoqda.

Ayniqsa, mahallalar va oilalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni yaxshilash, yoshlarni kasb-hunarli, bilimli, salohiyatli qilib vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida nuroniylarga bildirilayotgan yuksak ishonch va e‘tibor ularga kuch-quvvat berib, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davomi 2-betda

Alisher Navoiy
tavalludining 585 yilligi

DUNYONI UYG‘OTGAN NAVOIY

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy shaxsi va faoliyati haqida gap ketganda, bu ulug‘ siymoni Amir Temur hazratlarining nomi va sulolasiz tasavvur qilib bo‘lmagligini ta‘kidlab o‘tish kerak. Shak-shubhasiz, Sohibqiron bobomizning bardavom saltanati va uning eng ilg‘or vakillari, qolaversa, ul zotning oliyshon avlodlari zimmasidagi tarixiy va ijtimoiy mas‘uliyat majburiyati Alisher Navoiy singari daholarning dunyoga kelishiga sababchi bo‘lgan.

Prezidentimizning yaqinda qabul qilingan “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san‘at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tanishar ekanimiz, ushbu jahonshumul tarixiy-ijtimoiy haqiqatga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Albatta, bu tarixiy hujjat o‘z-o‘zidan yaralgani yo‘q. Ulug‘larimiz e‘tirof etishicha, sabab mohiyatsiz, mohiyat besabab bo‘lmas. Muqaddimada alohida ta‘kidlanganidek, “Mazkur qarorning asosiy maqsadi buyuk ajdodimiz asos solgan Ikkinchi Uyg‘onish davrining milliy va umuminsoniy mohiyati, yosh avlodni yangi O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o‘rni va ta‘sirini inobatga olib, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tashkiliy-amaliy, ilmiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish hisoblanadi”.

Davomi 6-betda

Ehtirom

ADABIYOT OSMONIDAGI
MA‘NAVIY MAYOQ

Alisher Navoiy dahosiga ehtirom turkiy xalqlar qalbidan mustahkam o‘rin olgan. Shu kunlarda buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi tavalludining 585 yilligi nafaqat respublikamizda, balki qator xorijiy mamlakatlarda ham keng nishonlanyapti. Bu bejiz emas, albatta. Zero, bobomizning ijodi asrlar davomida turkiy adabiyotning ma‘naviy mayog‘i vazifasini o‘tab kelmoqda.

Kuni kecha poxtaxtimizdagi Adiblar xiyobonida ham Hazrat Alisher Navoiy tavallud topgan sana munosabati bilan adabiy-ma‘rifiy tadbir o‘tkazildi. Tadbirga Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Yozuvchilar uyushmasi, turli vazirlik va idoralar, milliy madaniyat markazlari mas‘ul xodimlari, oliy ta‘lim muassasalari, mamlakatimizda akkreditatsiyadan o‘tgan xorijiy diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillari taklif etildi.

Davomi 6-betda



Boshlanishi 1-betda


Keksalar hayot maktabi, sabr-toqat, halollik va fidoyilik timsolidir. Bugun nuroniylar mahallaning o‘ziga xos ustuni va yoshlar tarbiyasida zamonaviy o‘lim hamda milliy qadriyatlarni bir-biriga tutashtiruvchi ma’naviy ko‘priikka aylandi. Yoshlarga hayotiy tajribasi, ibratli maslahatlari bilan yo‘l ko‘rsatayotgan otaxon va onaxonlarimiz mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish, oilalarda sog‘lom muhitni mustahkamlashga bebaho hissa qo‘shmoqda.

Dunyoda notinchliklar sodir bo‘layotgan, davlatlar o‘rtasida iqtisodiy qarama-qarshilik, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan bugungi kunda mahallalarda hamjihatlik muhitini asrash, yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, ular turli zararli odatlar ta’siriga tushib qolmasligiga alohida e’tibor qaratish eng dolzarb masala bo‘lib turibdi. Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida bu masalaga alohida to‘xtalib, “Yurtimizdagi har bir bola, har bir yosh — bizning farzandimiz, ularni giyohvandlik changaliga tashlab qo‘yishga aslo yo‘l qo‘ymaymiz. Giyohvandlikni tag-tomiri bilan butkul yo‘qotish, yoshlarimizda kuchli ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish bo‘yicha barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz”, dedi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari “Oldimizga qo‘ygan maqsadlarni faqat o‘zimiz — katta hayotiy tajribaga ega mahalla raislari va faollari, hurmatli nuroniylarimiz, opa-singillarimiz, serg‘ayrat yoshlarimiz, ziyovillarimiz, ishbiarmon tadbirkorlarimiz, Vatan posbonlari, bir so‘z bilan aytganda, butun xalqimiz bilan birligilda amalga oshiramiz”, deya alohida ta’kidladi.

Murojaatnomada belgilangan vazifalar mohiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etayotgan nuroniylar o‘z oldiga yangi mas’uliyatli vazifalarni belgilab oldi va amaliy ishlarni boshlab yubordi.

O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar jamg‘armasi ham O‘zbekiston mahallalari



Sodiqjon TURDIYEV,
“Nuroniylar jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisi, senator, O‘zbekiston Qahramoni

uyushmasi 2026-yil 30-yanvar kuni qabul qilgan qo‘shma qarorga ko‘ra, mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, aholi o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlash hamda milliy urf-odatlar va qadriyatlar asosida hashar ishlarni samarali tashkil etish maqsadida mahallalardagi qariyb 160 mingta ko‘chaning har biriga nuroniylarni “ko‘chabag‘i” biriktirish belgilandi.

Mazkur hujjatga ko‘ra, mahallalar faoliyatini yanada samarali tashkil etishda mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, uning keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchisi, “mahalla yetiligi”, “Keksalar maslahati” guruhining hamkorlikdagi faoliyatining tizimli amalga oshirilishini ta’minlashga e’tibor qaratildi.

Tahillari ko‘rsatadiki, mahallalarda yuzaga kelayotgan ko‘plab muammolar — oilaviy nizolar, yoshlar bandligi, ijtimoiy beparvolik, jinoyatchilikka moyillik, eng avvalo, ma’naviy bo‘shliq bilan bog‘liq. Bu bo‘shliqni esa nuroniylarning hayotiy tajribasi, yoshlarga mehti, ishonchi, maslahat va o‘g‘itlari bilan to‘ldirish samara bermoqda.

Shuningdek, kambag‘allik, ishsizlik va

Hozir 50 dan ortiq davlat fuqarolariga O‘zbekistonga kelishi uchun bir martalik elektron viza rasmiylashtirish imkoniyati taqdim qilingan.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Nuroniylar tashabbusi bilan ta’lim maskanlarida o‘tkazilayotgan “Nuroniylar soati” ma’rifiy darslari, “Bir nuroniylar — o‘n yoshga mas’ul” tamoyili asosidagi tizimli ishlar ham yuz minglab yoshlarimiz hayotiga yangilanish va o‘zgarishlar olib kirmoqda.

tushib qolgan yoshlarga tegishli tashkilotlar orqali ko‘maklashaypti, bu orqali mahallalarda o‘zaro hamjihatlik va yordam muhitini shakllantirmoqda. Natijada yoshlar, yosh oilalar, ishsiz fuqarolarning davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarga nisbatan xabardorligi ta’minlanib, imtiyozli kreditlar, subsidiya va bandlik dasturlaridan foydalanishga ishonchi ortmoqda. Aynan shu ishonch kambag‘allikdan chiqish yo‘lidagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Nuroniylar tashabbusi bilan ta’lim maskanlarida o‘tkazilayotgan “Nuroniylar soati” ma’rifiy darslari, “Bir nuroniylar — o‘n

yoshga mas’ul” tamoyili asosidagi tizimli ishlar ham yuz minglab yoshlarimiz hayotiga yangilanish va o‘zgarishlar olib kirmoqda.

Ekologik barqarorlikni ta’minlash va ma’naviy tarbiyani uyg‘unlikda olib borishda ham nuroniylarning muhim o‘rni bor. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida nuroniylarning faol ishtiroki yosh avlod uchun namuna bo‘lmoqda. Kuzgi va bahorgi ko‘chat ekish mavsumlarida daraxt ekish shunchaki tadbir emas, balki tabiatga mas’uliyatli munosabatlarda bo‘lish, kelajak oldidagi burchni his etishda ma’naviy maktab vazifasini o‘tarmoqda.

Mahallalar va oilalardagi hamjihatlik, ahillik va totuvlik ko‘p jihatdan nuroniylar otaxon va onaxonlarga bog‘liq. Ular oilalarda sabr, matonat, qanoat, o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarini targ‘ib etish orqali mojarolarning oldini olishga munosib hissa qo‘shmoqda.

“Nuroniylar jamg‘armasi va O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamkorligida har bir ko‘chaga faol nuroniylarning “ko‘chabag‘i” biriktirilishi esa qadriyatlarimizni yanada sayqallash, mahallaning ijtimoiy-ma’naviy muhitini sog‘lomlashtirishdagi o‘rmini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasiz. Mahallalardagi hasharlar, obodonlashtirish, ko‘kalzorlashtirish ishlari, Navro‘z va sumalak sayillarida nuroniylar oqsoqollarning bosh-qosh bo‘lishi qo‘ni-qo‘shnilar va mahalla ahli o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, ahillik muhitini mustahkamlaydi. Yoshlarning o‘zi tug‘ilib o‘sgan mahallaga mehriini kuchaytiradi.

Albatta, hali oldimizda turgan vazifalar juda ko‘p. Yoshlarning puxta bilim olishi, salohiyatini yuzaga chiqarishi, kasb-hunar egallab, el-yurtimiz ravnaqi yo‘lida munosib xizmat qiladigan yetuk kadrlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgan, ularning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilayotgan bugungi kunda farzandlarimizni turli yot g‘oyalarni ta’siriga berilishdan, jinoyatchilik yo‘liga kirib qolishdan asrash, sog‘lom va totuv oilalarda, bag‘ri butunlikda ulg‘ayishini ta’minlash biz, keksalarning avlodlar oldidagi burchimizdir.

Bu borada, ayniqsa, yoshlarimizga milliy qadriyatlar va ona Vatanimizga mehr-muhabbat ruhini singdirishimiz muhim ma’naviy-ijtimoiy poydevor hisoblanadi. Shu ma’noda, biz, nuroniylardan bugun mamlakatimizdagi har bir yoshning, har bir o‘g‘il-qizimizning taqdiriga daxldorlik mas’uliyati bilan ishlashimiz, o‘z hayotiy tajribalarimiz asosida oilalardagi totuvlik muhitini asrashimiz talab etilmoqda.

O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar jamg‘armasi bilan O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamkorligida yurtimizdagi har bir ko‘chaga nuroniylarning “ko‘chabag‘i” biriktirilayotgani milliy qadriyatlarimizni asrash va yoshlarimizni zamonaviy ruhda tarbiyalashda o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashga va jamiyatda ma’naviy yuksalish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash yo‘lida xizmat qilishi, bu jarayonda mahallalarda tarbiya borasidagi o‘zbekona go‘zal qadriyatlarimiz qayta sayqallanib, nuroniylarning bugungi islohotlardagi faol ishtiroki va tashabbuskorligi yanada kuchayishi shubhasiz.

Boshlanishi 1-betda

Bu jarayonda ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish bo‘linmalarini bosqichma-bosqich tezkorlik va shaffoflik tamoyillari asosida aholiga yanada qulay va sifatli xizmat ko‘rsatuvchi “servis bo‘linmalar”ga aylantirishga ham zarurat sezilyapti. Buning uchun migratsiya va personallashtirish sohasida respublika — viloyat — tuman (shahar) bo‘linmalari faoliyatini tashkil etishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish va ish samaradorligini oshirish, sohada ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini raqamlashtirish talab etiladi.

Prezidentimizning shu yil 19-yanvardagi “Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu vazifalar ijrosiga huquqiy zamin hozirladi. Unga ko‘ra, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti to‘g‘risidagi nizam hamda Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Sohani raqamlashtirish takomillashtiriladi

Bugun Migratsiya va personallashtirish departamenti hamda quyi bo‘linmalari aholiga 19 turdagi davlat xizmatini ko‘rsatmoqda. Shu paytgacha ushbu xizmatlardan bevosita departament va quyi bo‘linmalarga borgan holda foydalanish mumkin edi. Shu bois, xizmatlarni raqamlashtirish, aholiga onlayn xizmat ko‘rsatish borasida ba’zi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish zarurati bor edi.

Prezidentimizning joriy yil 19-yanvardagi tegishli qaroriga binoan migratsiya jarayonini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida raqamlashtirish, sohada davlat xizmatlarini ko‘rsatishni tubdan takomillashtirish, hujjatlarni inson omilisiz rasmiylashtirish borasida muhim vazifalar belgilandi. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamentining tashkiliy tuzilmasi, departament tarkibida boshqarma maqomiga ega bo‘lgan Personallashtirish markazi tashkil etildi.

Migratsiya va personallashtirish departamenti to‘g‘risidagi nizomda departamentning vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasiga oid yangi normativ-huquqiy hujjatlari loyihasi va raqamlashtirish bo‘yicha 17 ta talabni qamrab olgan “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Departament va quyi tuzilmalarida kadrlar qo‘nimsizligining oldini olish orqali professional xodimlar bazasini shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Qarorda aholiga qulaylik yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, 2026-yil 1-sentabrden boshlab talabalar yotoqxonasiga joylashish bo‘yicha shartnoma tuzish bilan birga talabalarni turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishning kompozit tartibi joriy etiladi. Joriy yil 1-fevraldan boshlab jismoniy shaxslarga identifikatsiyalovchi ID kartalar birinchi marotaba rasmiylashtirilganda, uning chipiga kiritiladigan elektron raqamli imzo sertifikatini bepul beriladi hamda fuqaro “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash yagona axborot tizimida avtomatik tarzda bepul ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Migratsiya va personallashtirish departamenti jismoniy shaxslarning markaziy ma’lumotlar bazalarini shakllantirish va doimiy yangilab borish bo‘yicha vakolatli organdir.

Ulug‘bek TOSHXO‘JAYEV,
Migratsiya va personallashtirish departamenti boshlig‘i



Sharh



“Passport-visa” mobil ilovasi: 22 ta onlayn davlat xizmati

Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-yanvardagi tegishli qaroriga binoan, 2026-yil 1-maydan boshlab eksperiment tartiqasida Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari hamda Qoraqalpog‘istondagi bittadan tuman (shahar) ichki ishlar organlari migratsiya va personallashtirish bo‘linmalarida o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratilgan. Sun’iy intellekt asosida faoliyat yuritadigan “aqlli” migratsiya shoxobchalarini tashkil etiladi.

Dastlabki bosqichda “aqlli” migratsiya shoxobchalarida belgilangan turdagi davlat xizmatlari ko‘rsatiladi. Ahamiyatlisi, ushbu shoxobchalarda ilk bosqichda fuqarolar o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish asosida 14 turdagi davlat xizmatidan foydalanishi mumkin. Ushbu xizmatlar bosqichma-bosqich ko‘paytirib boriladi.

Xususan, identifikatsiyalovchi ID kartani ushbu shoxobchada rasmiylashtirish va olish imkonini mavjud. Xorijga chiqish uchun biometrik pasportni olish uchun esa ariza qoldirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning viza muddatini uzaytirish ham mumkin.

Tajriba natijasidan kelib chiqib, 2027-yil 1-mayga qadar “aqlli” migratsiya shoxobchalarini respublikaning boshqa hududlarida, shuningdek, savdo va ko‘ngil-

ochar markazlar, sayyohlik hududlarida ham tashkil etish bo‘yicha taklif ishlab chiqiladi.

Ichki ishlar vazirligi 2026-yil 1-avgustga qadar sun’iy intellekt texnologiyalari asosida migratsiya va personallashtirish sohasiga oid elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish, onlayn huquqiy maslahat berish, yuklamasi kam bo‘lgan migratsiya bo‘linmalari haqida ma’lumot olish imkonini beruvchi “Passport-visa” avtomatlashtirilgan axborot tizimi majmuasining “Passport-visa” mobil ilovasini ishlab chiqadi. Bunda mazkur mobil ilova orqali ko‘rsatilishi ko‘zda tutilgan migratsiya va personallashtirish sohasiga oid elektron davlat xizmatlari dastlab Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yo‘lga qo‘yiladi.

Migratsiya sohasidagi 22 ta xizmat “Passport-visa” mobil ilovasi orqali onlayn ko‘rsatilishi belgilandi. Bunda aholi, jumladan, chet el fuqarolariga ham davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ichki ishlar sohasidagi davlat xizmatlaridan foydalanishga rozilik olish uchun “E-Rozilik” platformasining yuzni tanib olish tizimi qo‘llanadi.

Bobur ALLABERGANOV,
Raqamli texnologiyalar vazirligi bo‘lim boshlig‘i

AHOILI UCHUN YANADA QULAY VA SAMARALI “SERVIS BO‘LINMALAR”I

“Yagona raqamli migratsiya” platformasi yaratiladi

Dunyoda turizm sohasiga barcha infratuzilmani rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qaraladi. Zamonaviy sayyohlik transport, ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan. Bu oxir-oqibat uni iqtisodiyotning serdaromad, ya’ni drayver yo‘nalishiga aylantiradi.

Bugun turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan. Globallashuv jarayoni odamlarning dunyo bo‘ylab erkin harakatlanishiga keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-yanvardagi tegishli qarori bilan migratsiya bo‘linmalariga berilayotgan vakolatlar ayni shu yo‘nalishni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Hozir 50 dan ortiq davlat fuqarolariga O‘zbekistonga kelishi uchun bir martalik elektron viza rasmiylashtirish imkoniyati

taqdim qilingan. Bu esa yurtimizga keluvchi sayyohlar uchun juda katta qulaylik yaratgan. Tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochgan. Lekin ba’zi hollarda uzoqroq qolish, masalan, tibbiy turizm bo‘yicha kelganlarning yurtimizda ko‘proq qolishiga zarurat tug‘ilsa, bu borada muayyan muammolar paydo bo‘lardi.

Tibbiy turizm bo‘yicha yurtimizga kelayotgan sayyohning davolanish muddati belgilangan sanadan o‘tganda, fuqaro uni yangilash uchun, albatta, O‘zbekistondan chiqishi va takroran elektron vizasini rasmiylashtirishi zarur edi. Bunda u o‘z mamlakatiga qaytishi yoki uchinchi mamlakatga chiqib, vizani rasmiylashtirishga majbur edi. Bu esa biz tibbiyot xodimlariga ham, davolanish maqsadida kelgan sayyohlarga ham qator noqulaylik tug‘dirishi bilan birga muolaja samarasini kamaytirardi.

Endi yangi tartib shu toifadagi sayyohlar uchun qator qulayliklar yaratmoqda. Bundan



Hududiy ichki ishlar organlari rahbarlariga chet el fuqarolari ta’lim olayotgan muassasalar yoki mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarda viza muddatini uzaytirish, turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish uchun korxona, muassasa va tashkilotlar mablag‘i hisobidan shartnoma asosida migratsiya bo‘linmasiga shahodatlangan qo‘shimcha shtat birliklarini kiritish huquqi beriladi.

2026-yil 1-sentabrden boshlab xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va oila a’zolarini O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning biometrik harakatlanish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ariza yuborish, mulkdor yoki turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining murojaati asosida uning turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganini bekor qilish uchun ariza yuborish kabi davlat xizmatlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, shaxsga doir ma’lumotlar jamlangan “Yagona raqamli migratsiya” platformasi ishlab chiqiladi.

Nargiza ABDULLAYEVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti prorektori

Sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar, raqamli boshqaruv tizimlari, tezkor va shaffof xizmatlari — bularning barchasi mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishni jadallashuradi, yangi ish o‘rinlarini ochadi va odamlarning kundalik hayotida ko‘makchi vazifasini bajaradi.

Shunday ekan, qo‘yilayotgan har bir qadam, amalga oshirilayotgan har bir islohot, joriy qilinayotgan har bir tizim xalqimizning farovon hayoti va yurt taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Lutfulla SUVONOV tayyorladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews

Pokistonning Karachi, Gvadar va Qosim kabi portlari O'zbekiston uchun janubiy yo'nalishdagi tabiiy darvoza vazifasini bajaradi.

DAVR
NAFASI

3

2026-yil 10-fevral, 27-son

O'ZBEKISTON – POKISTON: KELISHUVLARDAN SEZILARLI NATIJALARGA



Qalandar ABDURAHMONOV,
akademik

Boshlanishi 1-betda

**Savdo va logistika:
tezlik va arzon baho bozorini
kengaytiradi**

Hamkorlikning eng tez baholanadigan ko'rsatkichi — o'zaro savdo. 2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston bilan Pokiston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 445,8 million dollarga yetgani qayd etildi. Bu raqam ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarda ishonch ortgani va hamkorlik qog'ozda qolmay, tovar harakatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ikki davlat rahbarlari savdo hajmini yaqin yillarda 2 milliard dollargacha yetkazish maqsadini belgilab oldi. Bu maqsad shior emas, amaliy vazifa. Uning ma'nosi shundaki, savdo o'sishi aniq tovar guruhlari, aniq yo'nalishlar, aniq tartib-taomillar va ishbilarmonlik muhitini yengillashtirish orqali ta'minlanadi.

Savdo o'sishiga ta'sir qiladigan eng katta omil — logistika xarajati va vaqt. O'zbekiston uchun dengiz portlariga chiqlik strategik ahamiyatga ega. Chunki tashqi bozorlarga chiqish qanchalik tez va arzon bo'lsa, eksportchining raqobatbardoshligi shunchalik oshadi. Shu nuqtada Pokistonning Karachi, Gvadar va Qosim kabi portlari O'zbekiston uchun janubiy yo'nalishdagi tabiiy darvoza vazifasini bajaradi. Portlarga ishonchli chiqish import-eksport geografiyasini diversifikatsiya qiladi. Bir yo'nalishga qaramlikni kamaytiradi. Ta'minot tavakkalchiligini pasaytiradi va transport ustamasini qisqartiradi. Oddiy qilib aytganda, yo'l xarajati arzonlashsa, tovar narxiga bosim kamayadi, bozorda raqobat kuchayadi, iste'molchining tanlov imkoniyati kengayadi.

Logistikadagi eng muhim loyihaviy yo'nalish sifatida transafo'g'on temir yo'li kun tartibiga qo'yildi. Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar yo'nalishidagi temir

yo'lining uzunligi muhokama qilinmoqda. Resurs va muddat bo'yicha rasmiy hisob-kitoblarda yuk tashish muddatini 35 kundan 3-5 kunga tushirish, standart konteyner tashish qiymatini qariyb uch barobar kamaytirish ko'rsatkichlari maqsad parametrlari sifatida keltirildi. Bu raqamlar quruq statistika emas: vaqt qisqarsa, kapital aylanmasi tezlashadi, ombor xarajati arzonlashadi, tovarning bozorga chiqish muddati qisqaradi, logistika ustamasi kamaygani esa mahsulot narxiga bevosita ta'sir qiladi. Bunda iqtisodiy samara faqat yo'ldan emas, yo'l atrofidagi xizmatlardan ham keladi: terminal, ombor, konteyner infratuzilmasi, tezkor bojxona va sertifikatlash jarayoni qanchalik uyg'un tashkil etilsa, loyiha natijasi shunchalik barqaror bo'ladi.

Tezlik omilini kuchaytirgan ikkinchi yo'nalish — havo qatnovi. O'zaro aviaqatnovlarning haftasiga to'rttaga chiqqani ishbilarmonlar uchun tezkor uchrashuvlarni ta'minlaydi, xizmatlar eksporti va turizm oqimini rag'batlantiradi, muzokaralarning qarorga aylanish muddatini qisqartiradi. Bugungi iqtisodiyotda vaqt puldan kam emas: kelishuv tez tuzilsa, tovar tez harakatlansa, investitsiya tez kirib kelsa, iqtisodiy faollik sur'ati ham oshadi.

Savdoning yana bir ko'rinmas dvigateli bor: tartib-taomillar. Imtiyozli savdo va tartib savdo bo'yicha kelishuvlarning amaldagi qiymati shu yerda namoyon bo'ladi: rasmiylashtirish xarajati qisqaradi, chegaradagi vaqt yo'qotilishi kamayadi, tadbirkor uchun qoidalar oydinlashadi. Shu sababli bojxona, sanitariya-fitosanitar va sertifikatlash talablarini muvofiqlashtirish, elektron deklaratsiya va "bir darcha" tamoyilini ishlash darajasiga chiqarish, tranzit ruxsatnomalarini shaffof tartibga solish hamkorlikning amaliy ustuvor vazifalari sifatida ko'rilmog'ya. Byurokratiya qisqargani sari bozor kengayadi. Chunki biznes uchun eng qimmat resurs vaqtidir.



**Investitsiya va sanoat
kooperatsiyasi:
qo'shilgan qiymatni birga
yaratish**

Iqtisodiy aloqalar faqat savdo bilan cheklanib qolsa, mamlakatlar "sotuvchi — oluvchi" formatida qolib ketadi. Rivojlanishni tezlatadigan asosiy yo'l esa kooperatsiya, ya'ni qo'shilgan qiymatni birga yaratish. O'zbekiston va Pokiston iqtisodiyotining bir-birini to'ldiruvchi xususiyati bu yo'lni tabiiy ravishda ochadi: O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ip-kalava, kimyoviy



Xalqaro hamkorlik

tovarlar va transport xizmatlari, Pokiston esa farmatsevtika, to'qimachilik, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlarini taklif qiladi. Bu tuzilma qo'shma ishlab chiqarish va qo'shma eksport uchun tayyor baza.

Kooperatsiyaning asosiy afzalligi — qiymat zanjirining mamlakat ichida qolishi. Tayyor mahsulot xomashyoga nisbatan ko'proq ish o'rni ochadi, kengroq soliq bazasini shakllantiradi. Texnologiya, dizayn, marketing va standartlar kabi bilim talab qiladigan sohalarni rivojlantiradi. Shu ma'noda, farmatsevtika, to'qimachilik va chamm sanoati bo'yicha hamkorlikni chuqurlashtirish haqidagi kelishuvlar iqtisodiy ko'paytirgich vazifasini bajaradi: bir tomonning resurs va ishlab chiqarish imkoniyatlari ikkinchi tomonning bozor, texnologiya va kooperatsiya zanjiri bilan to'ldiriladi.

Investitsiya jarayonining tezlashishi uchun esa ikki omil hal qiluvchi ahamiyatga ega: ishonch va qoidalar. Sarmoyador uchun muhim signal — kafolat va prognoz qilinadigan muhit. Shuning uchun qo'shma loyihalarda uzoq muddatli shartnomalar, yer va infratuzilma bo'yicha aniq tartib, soliq, bojxona imtiyozlarining ochiq mezonlari, intellektual mulk huquqini himoya qilish, nizolarni hal etish mexanizmlarining ishonchligi birinchi o'ringa chiqadi. Xavf kamaygan joyga kapital kirib keladi. Kapital bilan birga texnologiya, boshqaruv madaniyati va yangi bozorlarga chiqish kanali ham keladi. Demak, investitsiya faqat pul emas, iqtisodiyotning sifatini o'zgartiradigan omildir.

Kooperatsiyani tezlashtiradigan amaliy yechimlar ham aniq. Farmatsevtikada

sertifikatlash va laboratoriya talablarini o'zaro tan olish yo'li ochilsa, dorilar bozorga tez kiradi, raqobat kuchayadi, aholi uchun tanlov kengayadi. To'qimachilikda "toladan tayyor kiyimgacha" zanjirini birlashtirish eksportda brend, dizayn va marketing qiymatini oshiradi. Hisob-kitoblari va to'lovlar tizimida to'g'ridan to'g'ri banklararo aloqalarning kengayishi, to'lovlarni tezlashtirish, eksportdoli moliyalashtirish va eksport sug'urtasi instrumentlarining kuchayishi savdoning real sur'atini oshiradi. Bu yo'nalishlar bevosita tovar hajmi va investitsiya dinamikasiga ta'sir qiladigan tizimli tezatkiqlardir.

**Inson kapitali va xizmatlar:
iqtisodiy bitimlarning barqaror
tayanchi**

Iqtisodiyotda har qanday katta loyihaning davomiyligi kadr va bilimga bog'liq. Shu sabab ta'lim, turizm, madaniy-gumanitar aloqalar va xizmatlar sohasidagi hamkorlikka iqtisodiy kelishuvlarning inson kapitaliga tayangan qismi sifatida qaramoqda. Karachi shahrida "UzbekPak International Trading Centre" savdo uyi va "UzbekPak Cultural Centre" madaniy markazining ochilishi ana shu yondashuvning amaldagi ko'rinishidir: ishbilarmon uchun ma'lumot va hamkor tishish osonlashadi, madaniy dasturlar xalqlar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Ishonch mustahkamlangan joyda biznes ham tezlashadi. Chunki har bir bitim ortida muayyan darajada ishonch turadi.

Turizm yo'nalishida viza tartibining yengillashtirish hamda to'g'ridan to'g'ri

qatnovlarning yo'lga qo'yilishi xalq uchun bevosita qulaylik yaratadi. Sayyohlik iqtisodiyotda pul aylanmasi tez sohalardan: mehmonxona, umumiy ovqatlanish, transport, gidlik xizmatlari, hunarmandlik va madaniy tadbirlar — bularning har biri kichik va o'rta biznesga daromad olib kiradi. Turist ko'paygani sari xizmat madaniyati o'sadi, shahar infratuzilmasi yangilanadi, yangi ish o'rinlari ochiladi. Bu — xalqqa seziladigan natijaning eng tez ko'rinadigan jihatlari.

Ta'lim va kadrlar tayyorlashda esa almashinuv dasturlari, stajirovkalar va qo'shma kurslar hamkorlikning uzoq muddatli bo'lishini ta'minlaydi. Logistika, tashqi savdo huquqi, bojxona ishi, farmatsevtika standartlari, to'qimachilik texnologiyalari, AT va turizm boshqaruvi kabi sohalarda malakali mutaxassislar ko'paygani sari kelishuvlar ijrosi tezlashadi, xatolar kamayadi, tizimli ishlash madaniyati shakllanadi. Shuning uchun inson kapitaliga sarmoya kiritish iqtisodiy strategiyaning ko'rinmas, ammo hal qiluvchi qismidir.

Mintaqaviy barqarorlik ham iqtisodiy manfaat bilan uzviy bog'liq. Afg'oniston atrofidagi xavfsizlik va tranzit barqarorligi ta'minlangan sharoitda temir yo'l va avtomobil yo'llari uzluksiz ishlaydi. Sug'urta va tashish xarajati kamayadi, investimont ishonchi mustahkamlanadi. Shu ma'noda, siyosiy-diplomatik muloqot iqtisodiy sharoitni barqarorlashtiruvchi omil sifatida ham katta ahamiyatga ega.

**Xulosa: diplomatiya statistikada
emas, ishonchda ko'rinadi**

O'zbekiston — Pokiston hamkorligining eng to'g'ri bahosi uning natijasi bilan o'lchanadi. 2025-yildagi 445,8 million dollarlik savdo hajmi hamkorlik mexanizmi ishlayotganini ko'rsatadi. Savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish maqsadi aniq vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Transafo'g'on yo'lga bo'yicha muhokama qilingan parametrlar — muddat va xarajatning keskin qisqarishi — logistikaning iqtisodiy mantig'ini ochiq ko'rsatadi: vaqt qisqarishi va xarajat pasayishi tovar narxiga, biznes faolligiga va ish o'rinlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

Endi hal qiluvchi mezon — ijro intizimi. Har bir kelishuv bo'yicha mas'ul ijrochilar, muddatlar va o'lchanadigan natija ko'rsatkichlari belgilanganda, hamkorlik rejaning real natijaga aylanadi. Ana shunda diplomatiyaning qimmatli statistikada emas, bozordagi narxda, yo'ldagi vaqtda, yangi ish o'rinida, talabning imkoniyati va tadbirkorning ishonchida ko'rinadi. Ikki davlat rahbarlari belgilab bergan asosiy maqsad ham shu: kelishuvlar xalqqa sezilarli natija bersin, iqtisodiy aloqalar barqaror va uzluksiz o'ssin, Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi yangi iqtisodiy ko'priklari amaliy mazmun bilan boyisin.



Munosabat

O'zbekistonning tashqi siyosati so'nggi yillarda ochiqlik, o'zaro ishonch va pragmatik hamkorlik tamoyillari asosida yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Bu jarayonda Prezidentimizning tashabbuskor, jasoratli va uzoqni ko'zlagan tashqi siyosati alohida o'rin tutadi. Ana shu siyosatning yorqin ifodasi sifatida davlatimiz rahbarining Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifini alohida qayd etish joiz. Ushbu tashrif O'zbekiston — Pokiston munosabatlarni sifat jihatidan yangi, strategik bosqichga olib chiqdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi aloqalar chuqur tarixiy ildizlarga ega, zamonaviy diplomatik aloqalar bilan cheklanib qolmaydi. Bu munosabatlar asrlar davomida shakllangan chuqur tarixiy, ma'naviy va madaniy ildizlarga ega bo'lib, bugungi strategik sheriklik aynan shu mustahkam poydevor ustida barpo etilmoqda.

Markaziy va Janubiy Osiyo xalqlarini bog'lab turgan tarixiy bog'liqlik geografik yaqinlikdan ham, siyosiy konyunkturadan ham ustun turadi. Bu bog'liqlik umumiy tamadduniy makon, umumiy tarixiy xotira va ma'naviy meros bilan belgilanadi.

Davlatlarimizni bog'lab turgan eng muhim tarixiy ko'priklardan biri buyuk davlat arbobi, sarkarda va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur merosidir. Buyuk sarkarda asos solgan boburiylar sulolasi ulkan davlat barpo etish barobarida ilm-fan, me'morchilik, adabiyot va davlat boshqaruvi sohalarida yuksak tamadduniy yutuqlarga erishdi. Bu meros bugun ham O'zbekiston va Pokiston munosabatlarda ma'naviy tayanch sifatida xizmat qilmoqda.

Islomoboddagi ko'chalardan birining Toshkent nomi bilan atalishi, shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi bog' barpo etilishi faqat ramziy qadam emas, balki xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hurmatning amaldagi ifodasidir. Bu — tarixga



Anvar TO'YCHIYEV,
Oliy Majlis Senati qo'mita raisi

hurmat, umumiy ildizlarga sodiqlik va kelajak avlodlarga yo'naltirilgan ma'naviy ko'prikl.

Asrlar davomida Buxoro, Samarqand, Hirot, Peshovar va Lahor shaharlari islom sivilizatsiyasining muhim ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida o'zaro uzviy bog'langan. Ushbu makonlarda shakllangan ilmiy va ma'rifiy an'analari umumiy intellektual muhitni vujudga keltirgan.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi ulug' allomalar

merosi Markaziy va Janubiy Osiyo xalqlari uchun umumiy ma'naviy boylikdir. Ularning asarlari asrlar davomida hozirgi Pokiston hududidagi madrasalarda ham o'rganilgan. Bugungi ta'lim va fan sohasidagi hamkorlik, qo'shma tadqiqotlar va akademik almashinuvlar aynan ana shu tarixiy ildizlarning zamonaviy davomidir.

Pokiston O'zbekiston mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan davlatlardan. Shu paytdan buyon ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy muloqot izchil rivojlanmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda Prezidentimiz yuritayotgan ochiq va faol tashqi siyosat tufayli O'zbekiston — Pokiston munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu siyosat tarixiy yaqinlikni real iqtisodiy, siyosiy va gumanitar hamkorlikka aylantirishga qaratilgan.

Prezidentimizning ushbu mamlakatga davlat tashrif doirasida O'zbekiston — Pokiston Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi o'tkazildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda Prezidentimiz yuritayotgan ochiq va faol tashqi siyosat tufayli O'zbekiston — Pokiston munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

So'nggi besh yilda o'zaro savdo hajmi 2,5 baravar oshdi, qo'shma korxonalar soni qariyb 3 baravar ko'paydi, tovar ayirboshlashni yaqin kelajakda 2 milliard dollarga yetkazish maqsadi aniq belgilandi.

Bu raqamlar tasodifiy emas. Ular davlat rahbarlarining siyosiy irodasi, ishonchli muloqoti va aniq natijaga yo'naltirilgan siyosatning samarasidir.

STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI SIFAT BOSQICHI



Tashrif doirasida qariyb 3,5 milliard dollarlik investitsiya va kooperatsiya loyihalari portfeli shakllantirildi. To'qimachilik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, elektrotexnika va tog'-kon sohalarda amaliy hamkorlik yangi sur'at oldi.

O'zbekiston — Pokiston ishbilarmonlar kengashini tashkil etish to'g'risidagi kelishuv, hududlararo forum o'tkazish rejalari hamkorlikni markazdan hududlarga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy aloqalarning barqarorligini ta'minlaydi.

Hozirgi global xavf-xatarlar sharoitida xavfsizlik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni kengaytirish, qo'shma o'quvlar, mutaxassislar

tayyorlash, mudofaa sanoatida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish bo'yicha aniq kelishuvlarga erishildi. Alohida "yo'l xaritasi" qabul qilinishi mazkur sohadagi hamkorlikning tizimli tus olishini ta'minlaydi.

Tashrif doirasida madaniyat haftaliklari, kino kunlari, ilmiy-ma'rifiy merosni o'rganish, ta'lim sohasida hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha muhim kelishuvlar imzolandi. Pokiston Milliy fan va texnologiyalar universitetining faxriy doktori va professori unvonlarining berilishi davlatimiz rahbarining ta'lim, fan va innovatsiya sohasidagi islohotlariga yuksak xalqaro bahodir. Erishilgan kelishuvlar, imzolangan qo'shma deklaratsiya va o'ttizga yaqin ikki tomonlama hujjatlar davlatlarimiz rahbarlarining

mustahkam siyosiy irodasi, munosabatlarni uzoq muddatli va barqaror asosda rivojlantirishga qat'iy intilishini yaqqol namoyon etdi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiyaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha belgilab olingan vazifalarni amaliy mazmunga ega, ular yaqin yillarda real natijalar berishi shubhasiz.

Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilayotgan mintaqaviy bog'liqlikni kuchaytirish g'oyalari — transafo'g'on transport yo'lga, Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi yangi logistika zanjirlari — O'zbekistonning tashqi siyosati nafaqat milliy, balki keng mintaqaviy manfaatlar xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Bu yondashuv mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada oshirayotgan muhim omildir.

Shu bilan birga, harbiy va harbiy-texnik hamkorlik, xavfsizlik sohasidagi kelishuvlar, madaniyat, ta'lim va insonlararo aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar O'zbekiston — Pokiston munosabatlarning ko'p qirrali, muvozanatli va barqaror tus olayotganini tasdiqlaydi. Bu hamkorlik nafaqat davlatlar, balki xalqlarimiz o'rtasidagi ishonch va do'stlikni mustahkamlashga zamin yaratadi.

Umuman olganda, mazkur davlat tashrif O'zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik, konstruktivlik va amaliy natijaga yo'naltirilgan yondashuvning yana bir yorqin namunasi bo'ldi. Tashabbuskor va oqilona tashqi siyosat tufayli O'zbekiston mintaqada ishonchli sherik, barqaror taraqqiyot tarafdori va kelajakka ishonch bilan qadam qo'yayotgan davlat sifatida mavqeqini yanada mustahkamlamoqda.

O'zbekiston — Pokiston strategik sherikligi kelgusi yillarda yangi amaliy mazmun bilan boyib, ikki xalq farononligi, mintaqaviy barqarorlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.



Mulohaza

Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, sun‘iy intellekt, global mehnat bozorining integratsiyalashuvi qisqa muddatda kasbiy faoliyat mazmunini yangiladi. Ana shu sharoitda ta‘lim tizimining asosiy vazifasi faqat bilim berish bilan chegaralanib qolmay, yosh avlodni ijtimoiy va iqtisodiy muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlarga mos tafakkur va malaka bilan qurollantirishni taqozo qilmoqda. Ushbu jarayonda jahon tahliliy adabiyotida “education lag”, ya‘ni ta‘lim rivojida nomutanosiblik tushunchasi paydo bo‘ldi. U ta‘limning jamiyat rivoji bilan sinxronlik darajasini tavsiflovchi muhim nazariy kategoriya sifatida mustahkam o‘rin egalladi.



Mazkur tushuncha pedagogik tizimdagi alohida kamchiliklarni sanab o‘tish maqsadida emas, balki ta‘limning funksional o‘rni va vaqqa munosabatini aniqlash uchun qo‘llanmoqda. Insoniyat tamaddunining yangi davrida uning taraqqiyot sur‘ati bilan nechog‘liq hamqadam bo‘la olayotgani ko‘pchilik soha mutaxassislarini o‘ylantirayotgan masalalardan. Boisi, xalqaro tadqiqotlar ta‘lim tizimlarining texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuv darajasi yetarli sur‘atda kechmayotganini ko‘rsatdi. Jumladan, UNESCO va OECD tahlillariga ko‘ra, aksariyat mamlakatlarda o‘quv dasturlari va fanlar mazmuni o‘rtacha 8-12 yil oraliqda yangilanadi. Holbuki, mehnat bozori talab qilayotgan ko‘nikmalar 3-5 yilda sezilarli darajada o‘zgarib ketishi aniqlangan. Mazkur tafovut ta‘lim tizimi bilan real iqtisodiyot ehtiyoji o‘rtasida barqaror nomutanosiblik yuzaga kelayotganini anglatadi va bu holat ta‘lim samaradorligiga



Asliddin ABDURAZZOQOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

bevosita ta‘sir etyapti. Shu sababli ta‘limni yangilash jarayonida faqat tashkiliy islohotlar bilan cheklanmay, o‘quv mazmunini qayta ko‘rib chiqish, ish bozori signallarini tizimli ravishda ta‘limga integratsiya qilish hamda moslashuvchan va tezkor yangilanadigan o‘quv modellari joriy etish strategik vazifadir. Shu ma‘noda, ushbu masalani milliy kontekstda ko‘rib chiqish ehtiyoji paydo bo‘lmoqda. Bu yosh avlodning tayyorgarlik darajasi, kasbiy moslashuvga kirishish tezligi, bilimning amaliy muhitdagi barqarorligi bilan bog‘liq masalalar kundalik tajribada o‘z aksini topmoqda.

Ta‘lim infratuzilmasining kengayishi, institutsional islohotlar, bilim olish imkoniyatlarining diversifikatsiyasi bilan bir qatorda jamiyatning ta‘limdan kutayotgan funksional samarasi tobora murakkablashayotgani kuzatilayapti. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston ta‘lim tizimining jamiyat rivoji bilan o‘zaro munosabatini vaqt mezonini orqali qayta baholash, muassasalarda faol joriy etilayotgan dual ta‘lim modeli hamda davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ilgari surilgan kasbiy ta‘lim masallarini tahlil qilish bugungi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda muhim zaruratdir.

Kompetensiyalar va dual ta‘lim

Bugungi iqtisodiyotda mehnat faoliyati mazmuni, birinchi navbatda, kompetensiyalar

ILMIY NAZARIYADAN TIZIMLI MEKANIZMGACHA

majmuasi orqali belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda kasbiy muvaffaqiyat tahliliy fikrlash, muammolarni yechish, jamoaviy ishlash, moslashuvchan qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar bilan bog‘lanadi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan Skills Outlook hisobotlarida aynan shu kompetensiyalar XXI asr mehnat bozorining asosiy tayanchi sifatida qayd etilgan. Ushbu yondashuv ta‘lim mazmuniga talablarni tubdan o‘zgartirdi.

Mehnat bozori esa bilimdan ko‘ra tezroq yangilanayotgan muhit sifatida tavsiflanadi. Jahon bankining “Dunyo taraqqiyoti sarhisobi: mehnat tabiatining o‘zgarishi” nomli hisobotida kasbiy faoliyatning katta qismi qisqa muddatda yangi texnologik talablar ta‘sirida qayta shakllanishi ko‘rsatiladi. Ya‘ni kasblar mazmuni o‘zgarib boradi, yangi kasbiy yo‘nalishlar paydo bo‘ladi, ayrim faoliyat turlari esa funksional jihatdan boshqa shaklga ko‘chadi. Shu sharoitda ta‘lim mazmunining barqaror strukturalarga tayanishi muvofiqlik muammosini chuqurlashtiradi.

Mazkur tafovut ta‘lim oluvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida yaqqol seziladi. Xalqaro so‘rovlar va bitiruvchilar monitoringi natijalariga ko‘ra, oliy va o‘rta maxsus ta‘limni tugatgan yoshlarning muayyan qismi mehnat faoliyatiga kirish jarayonida qayta o‘rganish zaruratiga duch keladi. Bu holat bilim sifati pastligi bilan izohlanmaydi, balki bilimning amaliy muhitda ishlatilish mexanizmlaridagi kamchiliklar bilan bog‘liq tarzda talqin etiladi.

O‘zbekiston sharoitida ham mazkur jarayonlar umumiy global tendensiyalar bilan uyg‘un



ravishda kechmoqda. Ta‘lim muassasalarida berilayotgan bilim jamiyatdagi kasbiy talablar bilan bog‘lanishi tobora muhim ahamiyat kasb etar ekan, ish beruvchilar ko‘payotgan talablar, amaliy ko‘nikmalarga ehtiyoj, tez moslashuv imkoniyatlari ta‘lim mazmunining real hayot bilan aloqadorligini kuchaytirishi ham tabiiy. O‘qitish mazmuni, kompetensiyalar va mehnat bozori o‘rtasidagi ushbu tizimli tafovutni tugatgan yoshlarning muayyan qismi mehnat faoliyatiga kirish jarayonida qayta o‘rganish zaruratiga duch keladi. Bu holat bilim sifati pastligi bilan izohlanmaydi, balki bilimning amaliy muhitda ishlatilish mexanizmlaridagi kamchiliklar bilan bog‘liq tarzda talqin etiladi.

O‘zbekiston sharoitida ham mazkur jarayonlar umumiy global tendensiyalar bilan uyg‘un



Yurtimizda dual ta‘lim tizimli nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar orqali bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi “Oliy ta‘lim tizimida dual ta‘limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazkur jarayonning tuzilishini normativ-huquqiy asoslar orqali belgilab berdi. Hujjat asosida oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida institutlararo muloqotni yo‘lga qo‘yish mexanizmi aniq belgilandi. Bu jarayon ta‘lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarni sistematik tarzda egallashini ta‘minlaydi. Bunda nazariy bilim oliy ta‘lim muassasasida beriladi, amaliy mashg‘ulotlar esa korxonalarda o‘tiladi. Shu bilan birga, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi ma‘lumotlariga ko‘ra, korxonalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar uchun muayyan miqdorda ish haqi ham berilmoqda.

Bundan tashqari, kasbiy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining bandlik ko‘rsatkichlarini oshirish, ularni aniq ish o‘rinlari bilan ta‘minlashga qaratilgan qator dasturlar joriy etilayotganini ta‘kidlash kerak. Dual ta‘lim asosida o‘qitilayotgan talabalar ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etgani sababli ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligi yuqori baholalanmoqda. Shuningdek, ushbu model ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga ham xizmat qilyapti. Masalan, korxonalarda amaliy o‘tayotgan ta‘lim oluvchilar ishlab chiqarish madaniyati, texnologik intizom, jamoaviy mas‘uliyat kabi ko‘nikmalarni bevosita mehnat jarayonida o‘zlashtiradi. Bu ko‘nikmalar keyinchalik mustaqil kasbiy faoliyatda yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi. Shu tariqa dual

ta‘lim iqtisodiy tizim uchun uzoq muddatli investitsiyadir.

Uni institutsional darajada rivojlantirishda esa hududiy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olish ham muhim. Mamlakat hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy ixtiloslashuv tafovuti kasbiy tayyorgarlik yo‘nalishlarini belgilashda asosiy omillardan. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi ustuvor bo‘lgan hududlarda dual ta‘lim dasturlari mazmuni mahalliy mehnat bozorining real ehtiyojlariga moslashtirilishi talab etiladi.

Monitoring va sifat nazorati mexanizmlari dual ta‘limni barqaror rivojlantirishda asosiy institutsional elementdir. Ta‘lim natijalarini baholashda faqat akademik ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, bitiruvchilarning mehnat bozorida moslashuvi, kasbiy faoliyatdagi barqarorligi va ish beruvchilarning qoniqish darajasini ham hisobga olish zarurati yuzaga chiqmoqda. O‘zbekiston ta‘lim siyosatida milliy malaka va kvalifikatsiya tizimini joriy etish aynan shu baholash mexanizmlarini tizimlashtirishga qaratilgan.

Kasbiy ta‘limning funksional vazifalari

Kasbiy ta‘limni zamonaviy o‘qitish tizimida yordamchi yoki ikkilamchi yo‘nalish sifatida baholash yaramaydi. U iqtisodiy taraqqiyot, bandlik siyosati va inson kapitalini shakllantirish jarayoni bilan bevosita bog‘liq mustaqil institut. Kasbiy ta‘limning asosiy vazifasi nazariy bilim bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlash, shaxsning muayyan faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish orqali belgilanadi. Unda ishlab chiqarish intizomi, texnologik madaniyat, mehnat mas‘uliyati va jamoaviy hamkorlik kabi sifatlar tizimli tarzda rivojlanadi.

Mamlakatimizda kasbiy ta‘lim davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan. O‘qitish tizimini iqtisodiyot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga yo‘naltirish strategik masala darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani aynan shu strategik qarash ifodasidir.

AGROVOLTAIKA – ZAMONAVIY TEKNOLOGIYA



Ayni paytda kundalik hayotimizdagi yangi terminlar qatoriga agrovoltaika tushunchasi ham kirib kelyapti. Agrovoltaika — quyosh panellari orqali olinadigan elektr energiyasi va qishloq xo‘jaligi ekinlarini bir maydonda uyg‘unlashtirgan zamonaviy texnologiya. Yer va energiya resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladigan bu innovatsion tizim ilk bor mamlakatimizda sinov tariqasida joriy etilayotir. Uning samaradorligini Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida ilmiy asosda o‘rganish ko‘zda tutilgan.

Xo‘sh, ushbu innovatsion tizimni qayerdan, kimdan o‘rganaymiz? Uni qo‘llashga sharoitimiz yetarlimi? Savollarimizga qishloq xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari Akmal Qosimovdan javob oldik. Vazir

o‘rinbosari davlatimiz rahbarining Fransiya o‘tgan yilgi davlat tashrifi doirasida Parij shahrida Strategik sheriklikni o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya qabul qilinganidan gap boshladi. Tashrifdan bir oy o‘tib, mazkur strategik hamkorlik doirasida Qishloq xo‘jaligi vazirligi ishchi guruhi Fransiya xizmat safariga borib, Marsel shahrida agrovoltaika tizimi bilan batafsil tanishgan.

Fransiyada “yashil” energetika va qishloq xo‘jaligi sohasida yetakchi hisoblanadigan “Voltalia CA” kompaniyasi 20 ta davlatda quyosh paneli o‘rnatish va elektr energiyasi ishlab chiqarish bo‘yicha faoliyat yuritadi. O‘z navbatida, delegatsiyamiz a‘zolari quyosh panellarini o‘rnatish va uning ostidagi samarali foydalanish maqsadida sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish texnologiyalariga qiziqish bildirgan, fransiyaliklar bilan muhokamalar olib borgan. Marsel shahridagi 4,5 gektar maydondagi quyosh paneli stansiya faoliyati diqqat bilan o‘rganilgani buning amaliy isboti. Quyosh panellari yerdan 5 metr balandlikda o‘rnatilgan bo‘lib, ostida turli sabzavotlar (salat barglari, ko‘katlar, piyoz, osh lavlagi) ekilgan.

Tashrif yakunida kompaniya tomonidan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik

ilmiy-tadqiqot instituti Toshkent ilmiy-tajriba stansiyasida sinov tarzida 500 kVt. quvvatga ega “yashil” energiya ishlab chiqarish, ostida sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari yetishtirish loyihasini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik memorandumini imzolandi. Qolaversa, o‘tgan yilning noyabr oyida tomonlar o‘rtasida investitsion shartnomaga qo‘l qo‘yildi.

Yuqoridagilar asosida “Voltalia CA” kompaniyasi bilan hamkorlikda O‘zbekistonda agrovoltaika loyihasiga start berildi. Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonining 1 gektarida o‘rnatiladigan, joriy yilning may oyida ishga tushiriladigan 500 kVt. quvvatli quyosh stansiyasi ilmiy tadqiqotga imkon beradi.

Loyiha 1 million AQSH dollari miqdoridagi grant mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanishni kengaytirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarining amaliy samaradorligini oshirishni ta‘minlaydigan mazkur loyihani kengaytirib, boshqa ilmiy-tadqiqot institutlarida ham amalga oshirish rejalashtirilgan.

— Biz nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan agrovoltaika loyihasi taqdimotini o‘tkazdik, — dedi “Voltalia CA” kompaniyasining O‘zbekistondagi



Innovatsion yondashuvlar

vakolatxonasi rahbari Karole Ponte. — Loyihadan asosiy maqsad amalga oshirilgan o‘rganishlar natijasida uning O‘zbekistonda uchun qay darajada foydali va manfaatli ekanini aniqlashdir. Tajribani aynan Toshkent viloyatida boshlaganimiz boisi uni ko‘rgazmali va namunaviy loyiha sifatida aholiga namoyish etishdir. Olimlar, turli tashkilot vakillari hamda o‘rganuvchi, izlanuvchilar bu yerga kelib, u

bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Innovation yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, u atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish, issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirishga ham xizmat qiladi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori Bahodir Ibrohimovning agrovoltaika haqidagi fikrlari uning istiqbolli ekaniga bir ishora bo‘ldi.

Zero, institut direktori ochiq dalada qanday hosildorlik bo‘lsa, quyosh panellari ostida ham xuddi shunday hosildorlik bo‘lishini ta‘kidladi. Quyosh panellarini o‘rnatishdan keladigan afzalliklar ko‘p. Masalan, yoz issiq bo‘lgan taqdirda quyosh panellari soyalatish vazifasini bajaradi. Buning natijasida xalqiga talabchan bo‘lgan, xususan, karamdoshlar oilasiga mansub o‘simliklarni yozning issig‘ida ham yetishtirish mumkin.

Loyihani amalga oshirish davomida faqat elektr energiyasi olinibgina qolmay, ostida yetishtirilayotgan sabzavotlarning qanday o‘sib-rivojlanishi, namlikka, issiqlikka, quyug‘ochlikka bo‘lgan talablari o‘rganiladi. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshishi uni respublika bo‘ylab joriy etishga tavsiya berish imkoniyatini yaratadi. O‘ylaymizki, agrovoltaika usuli tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o‘tadi va hududlarimizga ham tatbiq etiladi.

Shu o‘rinda 2024-yilgi hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatimizda 10 gigavattli agrovoltaika salohiyati mavjudligi aniqlanganini ta‘kidlash joiz. Chunonchi, bu tizimni yo‘lga qo‘yish borasidagi dastlabki harakatlar bundan ikki yil avval boshlangan. Ajabmasi, agrovoltaika salohiyatimiz ham yildan yilga oshib borsa. Zero, quyosh panellari tuproqni quyosh va shamolning himoya qilish orqali uning hosildorligini o‘rtiradi. Fermalar quyosh panellariida ishlab chiqarilgan elektr energiyasidan yorug‘lik, sovitish yogi sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash kabi o‘z ehtiyojlari uchun foydalanishi mumkin.

Munojat MO‘MINOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi

Ehtirom

ADABIYOT OSMONIDAGI MA’NAVIY MAYOQ

DUNYONI UYG‘OTGAN NAVOIY

Boshlanishi 1-betda



Adabiy-ma’rifiy tadbirni Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ochib berdi. Shuningdek, mamlakatimizda milliy adabiyot va ma’naviyatni rivojlantirish, Vatanimizning shonli tarixini o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz merosini tadqiq etish yangi O‘zbekistonning ma’rifiy poydevorini yaratishda muhim asos bo‘layotganini qayd etdi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinov, Qirg‘izistonning O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Duyshunqul Chotonov, italiyalik noshir Sandro Teti, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi rahbari, navoiyshunos Olimjon Davlatov va boshqalar

shaklini o‘z ona tilida o‘qishga musharraf bo‘ldi. Bu Navoiy merosidan shunchaki bahramandlik emas, balki yangilanish jarayonini kechirayotgan O‘zbekistonning boy adabiy, badiiy, tarixiy merosi bilan tanishuv hamdir.



so‘zga chiqib, ulug‘ mutafakkirning boy ma’naviy merosi, ularda tarannum etilgan ezgu g‘oyalarning ahamiyati, asarlarining xorijda o‘rganilishi haqida batafsil so‘z yuritdi.

— Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari to‘liq tarjimasini italyan tilida nashr etganimizni ma’lum qilishdan g‘oyat mamnunman, — deydi Italiyaning “Sandro Teti Editor” nashriyoti asoschisi va rahbari Sandro Teti. — Ilk marta italiyaliklar dunyo adabiyotining ulug‘ alloma qalamiga mansub nodir namunasining to‘liq

Shoir G‘ayrat Majid “Hazrat Navoiy ziyorati” she’rini, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining mahalliy hamda xorijlik talabalari turli tillarda Alisher Navoiy g‘azal va ruboiylaridan namunalari o‘qidi.

Tadbir yakunida Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘yish marosimi o‘tkazildi. So‘ng navoiyxonlik kechalari Adilbar xiyobonidagi atoxli adiblar haykali poyida adabiyot va kitobxonlik tadbirlariga ulanib ketdi. Alloma bobomiz tavalludiga bag‘ishlangan tadbirlar, anjumanlar yurtimizning barcha hududlarida davom etmoqda.

Tantanalii tadbirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov, Bosh vazir o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Zulayho Mahkamova ishtirok etdi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Savol tug‘ilishi tabiiy: Navoiy shu paytgacha o‘qilmasmidi, mutolaa qilinmasmidi? Hamma gap zamonada. Bu zamonning bosh bunyodkori — davlatimiz rahbarining adabiyotga e’tiboriyu e’tirofi va albatta, yaratilayotgan imkoniyatlarda. Bizning bugungi ijtimoiy va kundalik hayotimizga “ortga qaytmas islohotlar” degan dolzarb ibora kirib keldi va chuqur singib ketdi. Demak, ortga yo‘l yo‘q!



Sirojiddin SAYYID,
Yozuvchilar uyushmasi raisi,
O‘zbekiston xalq shoiri

shoirligidan, shoiriligi shohligidan buyuk zot” Zahiriddin Muhammad Bobur bog‘i barpo qilinishiyo ko‘rkam ko‘chalardan biriga Toshkent nomi berilishi voqeasida yangi O‘zbekistonning tinchlikparvar siyosati bilan bobomeros qadriyat va udumlarimiz o‘rtasida chambarchas mushtaraklik, bir so‘z bilan aytganda, maqsad-muddomiz bor bo‘y-basti

qolmagan. Xususan, “Majolis un-nafois” asarining yettinchi majlisida Sohobqiron Amir Temur haqida so‘z yuritarkan, bunday fikrlarni bitadi: “Temur Ko‘ragon — agarchi nazm aytmogga iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasmi andoq xo‘b mahal va mavqe‘da o‘qubdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qug‘oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor...



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.

bilan namoyon bo‘lganini alohida aytib o‘tish kerak.

Alisher Navoiy bobomiz o‘z qalami bilan qanday ulug‘vor vazifani ado etayotganini teran his qiladi. Bobomizning nozik nigohidan eng yosh qalamkashlardan tortib, ulug‘-ulug‘ alloma, sarkarda va jahongirlar ham chetda

To olam ahli bilg‘aylarkim, Sulton Sohobqironq‘akim, majolisda paydar-pay xo‘b aboyt va yaxshi so‘zlar darmahal voqe‘ bo‘lur dag‘i mavrusiydurkim, nisbatin ul jaddi buzrugvorg‘a tuzaturkim, ul birining makoni ravzai jinon va bu biri jahon mulkida jovidon bo‘lsun!..

Qadriyatlarimiz, adabiyotimizni o‘qish, o‘rganish borasida ham qilinajak ishlarimiz nihoyatda mo‘l va bisyor. Barcha yo‘l va uslublardan keng foydalanish kerak. Eng zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni ham adabiyot ilmi, badiiy so‘z samaralarini bilish, o‘qish va o‘rgatish zahmati yo‘lida beminnat dastyorga aylantirish mumkin. Gap o‘zimizda.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.
30829 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardo Tolliboyev
Musahhih: Akbar Qarshiyeu
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy